

Surxondaryo viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim


2024/2025-o'quv yili boshiga

- I.** Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI.** O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

So'nggi yillarda Surxondaryo viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda, jumladan, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining umumiy soni ortib bormoqda. 2024/2025-o'quv yili boshida 2021/2022-o'quv yiliga nisbatan ularning soni **2 taga**, ya'ni **3,2 % ga** ko'payib, **64 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan kasb-hunar maktablari soni 2024/2025-o'quv yili boshida **29 tani** tashkil etgan va 2021/2022-o'quv yiliga nisbatan **1 taga**, ya'ni **3,6 % ga** oshgani kuzatilgan. Shuningdek, texnikumlar sonida ham o'sish qayd etilgan. Mazkur davr davomida ularning soni **3 taga (17,6 % ga)** oshib, 2024/2025-o'quv yili boshida **20 tani** tashkil etgan.

Kollejlar sonida esa yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida pasayish kuzatilgan. 2024/2025-o'quv yili boshida 2021/2022-o'quv yiliga nisbatan kollejlar soni **2 taga (15,4 % ga)** kamayib, tegishliligi **13 ta** va **11 tani** tashkil etgan.

Litseylar sonida esa yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida o'zgarish kuzatilmagan, tegishliligi **4 tadan** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonini tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024/2025-o'quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Surxondaryo viloyati	4	29	11	20
Termiz sh	2	2	1	5
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	-	2	1	-
Angor	-	2	1	1
Bandixon	-	1	1	1
Boysun	-	2	-	1
Muzrabot	-	1	1	1
Denov	-	4	1	3
Jarqo'rg'on	1	2	-	1
Qumqo'rg'on	-	2	1	1
Qiziriq	1	1	1	-
Sariosiyo	-	2	1	1
Termiz	-	1	-	-
Uzun	-	2	1	1
Sherobod	-	2	1	2
Sho'rchi	-	3	-	2

Eng ko'p akademik litseylar Termiz shahrida (**2 ta**) kuzatilgan. Kasb-hunar maktablari bo'yicha – Denov (**4 ta**), Sho'rchi (**3 ta**) hamda texnikumlar soni bo'yicha Termiz shahri (**5 ta**), Denov (**3 ta**), Sherobod va Sho'rchi tumanlarida (**2 tadan**) eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etganlar.

Boshqa tumanlarga nisbatan, eng kam akademik litseylar Jarqo'rg'on va Qiziriq tumanlarida (**1 tadan**) kuzatilgan. Eng kam kasb-hunar maktablari 9 ta tumanlarida **2 tadan** va 4 ta tumanida **1 tadan** joylashgan. Kollejlar soni bo'yicha 11 ta tumanlarida **1 tadan** tashkil etgan. Texnikumlar soni bo'yicha 9 ta tumanlarida **1 tadan**.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)


[Akademik litseylar soni](#)

[Kollejlar soni](#)

II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga kasb-hunar maktablaridan tashqari qabul qilingan o'quvchilar sonida umumiy kamayish kuzatilmoqda. 2024/2025-o'quv yili boshida 2021/2022-o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablariga qabul qilinganlar soni sezilarli darajada oshib, **5 369 nafardan 9 692 nafargacha** ko'paygan, ya'ni **80,5 % ga**. Texnikumlarga qabul qilinganlar soni esa **4 224 nafardan 3 132 nafargacha**, ya'ni **25,9 % ga** kamaygan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni (tegishli o'quv yili boshiga, kishi)



Kuzatilayotgan davr mobaynida akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilish ko'rsatkichi ham o'sganini ko'rish mumkin — **659 nafardan 627 nafargacha**, ya'ni **4,9 % ga** kamaygan. Biroq, kollejlarda qabul qilinganlar soni keskin kamaygan — **2 747 nafardan 671 nafargacha**, deyarli **4,1 barobarga**.

Qabul qilingan o'quvchilar sonini tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024/2025-o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Surxondaryo viloyati	627	9 692	671	3 132
Termiz sh	419	558	18	1 000
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	-	737	60	-
Angor	-	776	36	-
Bandixon	-	379	158	110
Boysun	-	562	-	142
Muzrabot	-	269	26	114
Denov	-	1 438	212	454
Jarqo'rg'on	160	705	-	90
Qumqo'rg'on	-	614	47	85
Qiziriq	48	301	26	-
Sariosiyo	-	672	20	230
Termiz	-	270	-	-
Uzun	-	729	68	81
Sherobod	-	675	-	398
Sho'rchi	-	1 007	-	428

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida (**419 nafar**), kasb-hunar maktablari va kollejlari bo'yicha – Denov tumanida (tegishliligidan **1 438** va **212 nafar**), texnikumlar bo'yicha – Termiz shahrida (**1 000 nafar**)da eng yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni boshqa tumanlarga nisbatan akademik litseylar bo'yicha Qiziriq tumanida (**48 nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha — Muzrabot tumanida (**269 nafar**), kollejlari bo'yicha — Termiz shahrida (**18 nafar**), texnikumlar bo'yicha – Uzun tumanida (**81 nafar**)ga eng past ko'rsatkichlar belgilangan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

So'nggi yillarda Surxondaryo viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni ortib bormoqda. 2024/2025-o'quv yili boshida 2021/2022-o'quv yiliga nisbatan ularning soni **22 516 ming nafarga**, ya'ni deyarli **18,4 % ga** ko'payib, **26 644 nafarni** tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarga kelsak, 2024/2025-o'quv yili boshida ularning soni **1 085 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022-o'quv yiliga nisbatan **30,4 % ga** kamaygan. Shuningdek, kollej o'quvchilari soni ham kamaygan — ushbu davr mobaynida **2 130 ming nafarga** (ya'ni **44,9 % ga**) qisqarib, 2024/2025-o'quv yili boshida **2 612 nafarni** tashkil etgan.

Yuqorida qayd etilgan vaqt oralig'ida kasb-hunar maktablari va texnikumlardagi o'quvchilar sonini ortishi kuzatilgan. 2024/2025-o'quv yili boshiga kelib, 2021/2022-o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablarida o'quvchilar soni **5 764 nafarga**, ya'ni **52,9 % ga** oshgan, texnikumlarda esa **968 nafarga (18,2 % ga)** ko'paygan. Tegishliligi bo'yicha ularning umumiy soni **16 660 va 6 287 nafarni** tashkil etgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida (**694 nafar**), kasb-hunar maktablari va kollejlari bo'yicha – Denov tumanida (tegishliligicha **2 733** va **535 nafar**), texnikumlar bo'yicha esa Termiz shahrida (**1 982 nafar**) qayd etilgan. Boshqa tumanlarga nisbatan akademik litseylardagi o'quvchilar soni bo'yicha eng past ko'rsatkich Qiziriq tumanida (**71 nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha Termiz tumanida (**372 nafar**), kollejlari bo'yicha Termiz shahrida (**82 nafar**), texnikumlar bo'yicha esa Termiz tumanida (**28 nafar**) kuzatilgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonini tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024/2025-o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlari	Texnikumlar
Surxondaryo viloyati	1 085	16 660	2 612	6 287
Termiz sh	694	853	82	1 982
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	-	1 108	241	-
Angor	-	1 415	201	28
Bandixon	-	618	225	241
Boysun	-	918	-	307
Muzrabot	-	421	287	173
Denov	-	2 733	535	1 029
Jarqo'rg'on	320	1 397	-	161
Qumqo'rg'on	-	1 027	207	257
Qiziriq	71	505	126	-
Sariosiyo	-	1 192	212	635
Termiz	-	372	-	-
Uzun	-	1 232	270	128
Sherobod	-	1 122	226	773
Sho'rchi	-	1 741	-	573

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)


[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

So'nggi yillarda viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarini bitirganlar sonida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. 2024-yilda, 2021-yilga nisbatan, ularning umumiy soni **9,0 barobarga** oshib, **11 074 nafarni** tashkil etgan.

Mazkur davr mobaynida kasb-hunar maktablarining bitiruvchilari soni **6 112 nafarga**, kollejlarniki — **1 816 nafarga (6,7 barobarga)**, texnikumlarniki esa **2 197 nafarga (16,7 barobarga)** oshgani qayd etilgan. Akademik litseylarning bitiruvchilariga kelsak, ushbu davrda ularning soni **278 nafarga**, ya'ni **36,3 % ga** kamaygan.

Bitiruvchilar soni
(tegishli yil uchun, kishi)



Bitiruvchilar sonini tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024-yil uchun, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Surxondaryo viloyati	488	6 112	2 137	2 337
Termiz sh	304	396	13	442
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	-	315	255	-
Angor	-	489	326	98
Bandixon	-	239	30	94
Boysun	-	335	-	113
Muzrabot	-	180	302	34
Denov	-	1 110	297	694
Jarqo'rg'on	156	510	-	43
Qumqo'rg'on	-	383	300	177
Qiziriq	28	185	171	-
Sariosiyo	-	518	202	309
Termiz	-	103	-	-
Uzun	-	406	124	-
Sherobod	-	309	117	245
Sho'rchi	-	634	-	88

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)


[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

**V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat
faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)**

2024/2025-o'quv yili boshida Surxondaryo viloyatidagi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)ning umumiy soni **1 908 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022-o'quv yiliga nisbatan **384 nafarga**, ya'ni **25,2 % ga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)



2024/2025-o'quv yili boshida akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **117 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022-o'quv yiliga nisbatan **19,9 % ga** kamaygan. Shuningdek, kasb-hunar maktablari va texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonida o'sish kuzatilmoqda. Kasb-hunar maktablarida ularning soni **416 nafarga**, ya'ni **34,7 % ga** ko'payib, **1 199 nafarni** tashkil etgan. Texnikumlarda esa ushbu ko'rsatkich **120 nafarga (35,9 % ga)** oshib, **454 nafarga** yetgan.

O'z o'rnida, kollejlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni kamayganligi kuzatilgan. Mazkur davrda ularning soni **123 nafarga (47,1 % ga)** qisqarib, 2024/2025-o'quv yili boshida **138 nafarni** tashkil etgan.

Enga ko'p pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni akademik litseylar, kollejlar va texnikumlar bo'yicha – Termiz shahrida (tegishliligidicha **75, 26 va 160 nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha — Denov tumanida (**198 nafar**)da kuzatilgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonini tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2024/2025-o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Surxondaryo viloyati	117	1 199	138	454
Termiz sh	75	161	26	160
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	-	67	13	-
Angor	-	93	15	7
Bandixon	-	35	8	20
Boysun	-	66	-	18
Muzrabot	-	35	9	4
Denov	-	198	16	81
Jarqo'rg'on	35	92	-	12
Qumqo'rg'on	-	74	14	23
Qiziriq	7	38	14	-
Sariosiyo	-	96	10	25
Termiz	-	28	-	-
Uzun	-	70	6	11
Sherobod	-	68	7	60
Sho'rchi	-	78	-	33

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(jami\)](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(ayollar\)](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(erkaklar\)](#)

VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Surxondaryo viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisoboti – 1 o'rta ta'lim shakli “Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar hisoboti” ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylarning statistik hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni va o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO 2011](#)

[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: 190108, Termiz sh.,
At-Termiziy ko'chasi, 7-uy
El. manzil: info@surstat.uz
Tel.: (55) 541-80-00, ichki: 76-00

